MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV, INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ahmadjonova Dilnavoz Muhsinjon qizi
FarDU magistri
N.O. Saidova
FarDU, o'qituvchisi

Qabul qilindi: 27.10.2025
Ko'rib chiqildi: 27.10.2025
Tasdiqlandi: 28.10.2025

Kalit so'zlar:
maktabgacha ta'lim tashkilotlari, kreativ, innovatsion yondashuv, aqliy jarayonlar, ijodiy rivojlanish, matematik tasavvurlarini shakllantirish, bolaning intellektual salohiyati, yosh davri

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ tushunchasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, uning matematik tushunchalarini shakllantirishdagi faoliyatda namoyon bo'lish jixatlarini tahlil etish va har bir faoliyat turi uchun zamonaviy innovatsion yondashuvlar keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tiziminig dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasi", 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan

takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga oid masalalarni hal etish nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga matematik tasavvurlarni shakillantirishda tarbiyachi tomonidan alohida mahorat, ijodkorlik talab etiladi.

Ijodkorlik so'ziga alohida to'xtaladigan bo'lsak, individning ijodkorlik qobilyati –noodatiy fikrlarini o'ylab topish, an'anaviy fikrlash doirasidan chetlashtirish, muammoli vaziyatni tezda hal etish qobiliyatidir. Shaxs yangi g'oyalarni yaratishga doimo tayyorlik bilan tavsiflanadi va qobiliyat tuzilmasi komponenti bo'lib hisoblanadi. Agar tarbiyachi quyidagi qobiliyatlarga ega shaxs bo'lsa tarbiyalanuvchi bilan erkin suhbat qura oladi. |Pedagogikada bolalarning savol va javoblar tizimi suhbat deyiladi. Suhbat usuli atroflicha o'ylangan savollar yordamida tarbiyachi bilan bolalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalarni egallashga olib keladi. Uni qo'llashda savollarni qo'yish, bolalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Suhbat davomida tarbiyachi bolalar tomonidan matematik terminlardan to'g'ri foydalanish, nutq savodxonligiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu turli tushuntirishlar bilan olib boriladi hamda ularning qabul qilishi aniqlashtirilib boriladi. Masalan tarbiyachi bolalarni geometrik figuralarni tekshirishga o'rgatadigan bo'lsa, figurani chap tomoningizga olib, kvadrat tomonlarini ko'rsating (to'g'ri uchburchak, uchburchak) deb tushuntiradi. Yoki boshqa misol tarbiyachi bolalarni o'lchashga o'rgatadigan bo'lsa, o'lchovni qo'yadi, keyin o'lchashni qanday hisoblash kerakligini ko'rsatadi va gapirib beradi.

O'quv mashg'uloti jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari mashg'ulot mazmuni, o'quv dasturi, darslik yoki pedagog faoliyati orqali o'tilishdan qat'iy nazar, bolaning erkin va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizga ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasiga e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning matematik faolligi turli tuman sharoitlarda: teatrlashtirilgan faoliyatda, qurish yasash o'yinlarida, faoliyat markazlarida o'stiriladi. Bolalarning namoyon bo'lgan kuchli tomonlarini bilish nafaqat tahlil uchun muhim, balki ularda kelgusida kasb tanlash, matematik qobiliyatlarni rag'batlantirish istiqbollarini belgilash imkonini beradi. Bolaning namoyon bo'lgan qobiliyatini inobotga olish nafaqat ularni rivojlantirish uchun, balki uning iste'dodini tegishli oqimga yo'naltirish uchun ham zarur.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yinlar va interaktiv, inovatsion usullar bolalarning matematik qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi, matematikada keng mo'ljal olish va matematik taassurotlar zahirasining to'planishiga sharoit yaratadi, "Ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyayevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori.
4. "Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova-Toshkent, Tafakkur nashriyoti, 2019. 28-35b